

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEV NODIR NEMATOVICH**

**NAZAR ESHONQUL NASRI MIFOPOETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Raxmatullayev Nodir Nematovich**

Nazar Eshonqul nasri mifopoetikasi ..... 3

**Рахматуллаев Нодир Нематович**

Мифопоэтика прозы Назар Эшонкула ..... 21

**Rakhmatullaev Nodir Nematovich**

Mythopoetics of Nazar Eshonkul prose ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 46

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEV NODIR NEMATOVICH**

**NAZAR ESHONQUL NASRI MIFOPOETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhD/Fil2459 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lif portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hasanov Shavkat Ahadovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**To'rayev Damin To'rayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Karimov Bahodir Nurmetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "25 " sentabr soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: pector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (86-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "13 " sentabr 2024 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "13 " sentabr 2024 dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.Q.Muhiddinov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.R.Musurmanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash seminar raisi o'rinosbosari, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida mif va mifopoetikaning asosiy jihatlari hisoblangan arxetipler, sujet, motiv, mifologik obraz, mifema, mifologema, mif yaratuvchilik, mifopoetik xronotop kabi tushunchalarni asoslash taqozo etilmoqda. XX asr oxiri XXI asr boshidagi adabiy ijodda yaratilgan olam modeli oldingi adabiy davrlar ma’naviy-estetik olamlaridan farq qiladi va zamonaviy mualliflarning xaos deb tushunilgan olamni turli rakurslardan kuzatishga intilishlari, milliy adabiyotni mifologik kontekstda sharplash, mifologik strukturalarga asoslanuvchi umuminsoniy mazmunni aniqlashga urinishlari, borliqning umumiy qonuniyatlarini anglash uchun ijtimoiy-tarixiy hamda zamon-makon ramkalaridan chiqish imkonini beradigan madaniy modelni qidirish yoki uni yaratish jarayoniga oydinlik kiritish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida mif va u bilan bog‘liq turli xil qarashlarga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, naturalistik, lingvistik, antropologik, ritual-marosimiy, funksionalistik, ijtimoiy, simvolistik, psichoanalitik, mifotanqidiy, strukturalistik, semiotik kabi mif muammosini aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mifologiya o‘z sinkretik tabiatiga ko‘ra falsafa, adabiyotning taraqqiyoti uchun asosiy material bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois adabiyotshunoslar oldida mifning janr yaratish xususiyatlarini o‘rganish, arxaik merosning keyingi davrlar adabiyotidagi nishonalarini aniqlash, mifologik obrazlarning zamonaviy voqelikdagi evrilishlarini yoritish, badiiy adabiyotda mifning ishtiroki muammolariga turlicha yondashuvlarni ochib berish, mifotsentrik asar uchun terminologik va metodologik apparatni ishlab chiqish asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, san’at va adabiyotdagi tendensiyalarning rivojlanishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”<sup>1</sup>. Bu borada amalgamoshirilayotgan islohotlar natijasida madaniyatning o‘ziga xos alohida hodisasi sifatida mifni o‘rganish gumanitar ilm-fanning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishini belgilab beradi. XX asr oxiri XXI asrning boshlarida adabiyotshunoslikda mifopoetikani o‘rganishda matn tahlilining turli metodlarini jalb qilib, kompleksli yondashuvni ishlab chiqishga intilishlar, mifologik sujetlarga murojaat qilish zamonaviy voqelik va tarixni o‘zgacha nigohda ko‘rish imkonini bermoqda. Shu sababli badiiy asar yaratishda mualliflarning ko‘proq kosmogonik va esxatologik miflardan foydalanishi natijasida XX-XXI asrlarda mifologik sujetlar va obrazlarni qayta anglash, qayta ifodalash, neomifologizm qirralarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sون “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойdevоридир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъruzasi // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 16-fevraldagagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyanı o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosi sifatida ushbu tadqiqot muayyan darajada ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darjasи.** Jalon adabiyotshunosligida mif va mifologiya hodisalari tadqiqot obyekti sifatida turli ilmiy fanlarda o‘rganiladi: falsafa, etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya, folklorshunoslik va adabiyotshunoslikda. Gumanitar ilm-fanda mifning nazariyalari ko‘p bo‘lib, ularning orasida naturalistik nazariya (A.Kun, V.Shvars, F.I.Buslayev, A.N.Afanasev), lingvistik nazariya (M.Myuller, A.A.Potebnya), antropologik (E.Teylor, E.Leng, G.Spenser), ritual-marosimiy nazariya (J.Frezer, D.Xarrison, A.B.Kuk), funksionalistik (A.Malinovskiy), ijtimoiy (E.Dyurkgeym, L.Levi-Bryul), simvolistik (E.Kassirer, V.Urban, S.Langer), psichoanalitik (Z.Freyd, K.G.Yung, J.Kempbell), mifotanqidiy (M.Bodkin, N.Fray), strukturalistik (K.Levi-Stross, Ye.M.Meletinskiy, V.N.Toporov), semiotik (R.Bart, Yu.M.Lotman, B.A.Uspenskiy) va boshqa nazariy ma’lumotlarda mif muammosi bilan bog‘liq tadqiqot ishlari yaratilgan<sup>2</sup>. Mifga oid nazariyalar haqida Ye.M.Melitinskiy, S.A.Tokarev, R.Veyman<sup>3</sup> kabi olimlarning ishlarida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

<sup>2</sup> Афанасьев Н.А. Происхождение мифа. – М., 1996. – 640 с.; Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: «Восточная литература» РАН, 2000. – 407 с.; Токарев С.А., Мелетинский Е.М. Мифология // Мифы народов мира: Энциклопедия в 2 т. Т. 1 / Под ред. С.А. Токарева. – М.: Сов. энциклопедия, 1991. – С. 11–20.; Барт Р. Мифология. – М.: Академический Проект, 2008. – 351 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Худ. лит., 1940. – 648 с.; Голосовкер Я.Э. Избранное. Логика мифа. – М.; СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2010. – 496 с.; Кассирер Э. Философия символических форм. Том 1. – СПб.: Университетская книга, 2001. – 271 с.; Кун Н.А. Легенды и мифы Древней Греции. – М.: Мартин, 2006. – 480 с.; Кэмпбелл Дж. Тысячеликий герой. – М.: АСТ, 1997. – 230 с.; Леви-Брюль Л. Первобытное мышление // Психология мышления. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – С. 130–140; Леви-Стросс К. Структурная антропология. – М.: Изд-во ЭКСМО-пресс, 2001. – 512 с.; Лотман Ю.М., Минц З.Г., Мелетинский Е.М. Литература и мифы // Мифы народов мира: Энциклопедия в 2 т. Т. 2. / Под ред. С.А. Токарева. – М.: Сов.энциклопедия, 1992. – С. 58–65.; Топоров В.Н. Модель мира (мифоэтическая) // Мифы народов мира: Энциклопедия в 2 т. Т. 2. – М.: Сов. энциклопедия, 1992. – С. 161–164.; Фрэзер Дж. Золотая ветвь. Пер. с англ. – М.: Политиздат, 1980. – 832 с.; Юнг К.Г. Проблемы души нашего времени. – М.: Академический проект, 2007. – 288 с.; Юнг К.Г. О современных мифах. – М.: Практика, 1994. – 252 с.

<sup>3</sup> Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. – М.: РГГУ, 1994. – 136 с.; Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. – М.: РГГУ, 2000. – 168 с.; Токарев С.А. Религия и мифология // Мифы народов мира: Энциклопедия в 2 т. Т. 2. / Под ред. С.А. Токарева. – М.: Сов. энциклопедия, 1992. – С. 376–378.; Вейман Р. История литературы и мифология. – М.: Прогресс, 1975. – 334 с.

O‘zbek olimlaridan M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarov, Sh.Turdimov va J.Eshonqulovlar miflarning tuzilishi va genezisi, mif va adabiyot o‘rtasidagi munosabatlar muammosiga alohida ahamiyat berishgan<sup>4</sup>. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan o‘zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olindi. Hozirgi o‘zbek nasriga yangicha dunyoqarash, yangicha idrok va talqin, o‘zgacha ijodiy tamoyillar olib kirgan Nazar Eshonqul ijodi va uning o‘ziga xos uslubini bir qator olimlar tadqiq etishgan. Jumladan, U.Hamdamov, Q.Qahramonov, K.Allambergenov, X.Do‘stmuhammedov, G.Sattorova, M.Rustamova, S.Matyakupov, A.Xolmurodov, D.Xoldorov, F.Radjabova, F.Burxanova, N.Chuliyevanining ishlarida ijodkor yaratgan hikoyalar, qissalarning o‘ziga xos xususiyatlari, poetik tili va uslubi, muallifning adabiy-estetik qarashlari haqida ilmiy mulohazalar mavjud. B.Jovliyev Nazar Eshonqul ijodini davriy tasniflab, hikoyalaridagi mifopoetik talqin va obrazlarni tadqiq etgan<sup>5</sup>.

Biroq Nazar Eshonqul nasri, xususan, qissa va romanlarining mifopoetikasi, mifologik arxetiplardan, mifologema va mifemalardan foydalanish mahorati, mifotsentrik asar yaratishdagi izlanishlari, mifologiya va neomifologiyaga bo‘lgan adabiy-estetik qarashlari yaxlit tadqiqot sifatida dissertatsiya ishi doirasida o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Adabiy tur va janlar poetikasi” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mifning badiiy adabiyotga ko‘chishi, badiiy diskursdagi evrilishlari, muallif mifologik olam manzarasini yaratishida mifologemalar va binar oppozitsiyalarning vazifalarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

mifotsentrik asarning badiiy tizimida mifologik arxetipler, mifologik sujet va motivlar, mifologik obraz, mifema, mifologema, mifopoetik xronotop kabilarning qo’llanilishi hamda ularning mif yaratuvchilik xususiyatlarini ochib berish;

muallifning mifotsentrik asardagi olamning mifopoetik manzarasini shakllantirishida, mifologik xronotop yaratishda binar oppozitsiyalarning roli va o‘rnini aniqlash;

hozirgi madaniyat va adabiyotda mifning qayta dolzarblashuvini qadimgi va zamонави мифологиyaning badiiy adabiyotga singishi xususiyatlari orqali dalillash;

muallifning individual mifologiyasi, mifotsentrik asar yaratish mahoratini asarlariga mifopoetik yondashuv asosida ochib berish;

<sup>4</sup> Жўраев М. Миф. Фольклор ва адабиёт/ Маматкул Жўраев, Манзура Нарзикулова. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – 136 б.; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 68 б.; Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – 122 б.; Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. – Т.: Фан, 2018. – 200 б.; Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талкини. – Т.: Фан, 2011. – 304 б.

<sup>5</sup> Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz. Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. – T., 2023. – 131 b.

mifologik arxetipik sujet va motivlarni, ezgulik va yovuzlik kurashini tasvirlashda muallifning jahon xalqlari mifologiyasidagi mifologizmlar va obrazlardan foydalanganligini dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Nazar Eshonqulning adabiy tanqidiy, ijtimoiy-falsafiy, ilmiy mulohazalari, adabiy etyudlari va nasriy asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** yozuvchining uslubi, voqelikka yondashuvi, tasvir va talqindagi o'zgachaligi, mifotsentrik asar yaratishdagi mahoratini, hissiy kechinmalarda butunlay yangi rakurslardan ko'rsatilishini mifopoetik va lingvopoetik jihatdan asoslash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, germenevtik, lingvopoetik va mifopoetik usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

muallifning hikoyalarda mifopoetikaning asosiy komponentlari hisoblangan arxetip, sujet, motiv, mifologik obraz, mifema, mifologema, mifopoetik xronotop kabilarning mifotsentrik badiiy asar kompozitsiyasini tashkil qilishi hamda intermatnlilik, mifologik kodlar va allyuzalar singari modernistik va qayta yaratish san'ati, voqelikni miflashtirish, lingvomadaniy arxetiplarni badiiy matnga kiritish kabi neomifologik xususiyatlari ochib berilgan;

mifotsentrik asarda olamning mifopoetik manzarasini shakllantirishda makon va zamon, tabiat, oq va qora rang, ruhiyat, sakral-ilohiylik, ijtimoiy-madaniy, diniy-mifologik tushunchalar hamda roviy va iblis, roviy va jamiyat, roviy va sharpa kabi struktura va mazmun hosil qiluvchi binar oppozitsiyalar aniqlangan;

Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari", "Qora kitob" va "Taqiq mevasi" asarlariga mifopoetik yondashuv asosida yozuvchining kitob, olma mevasi, daraxt, yo'l, uy, labirint kabi mifologemalardan foydalanib, milliy-individual mifologiya yarata olganligi asoslangan;

Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" asaridagi arxetipik sujetga kiruvchi ilkgunoh va abadiy tazarru motivlarini, inson makro va mikrokosmidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlarni tasvirlashda jahon xalqlari mifologiyasidagi *Prometey, Iblis, Odam Ota, Momo Havo* kabi obrazlaridan foydalanganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy adabiyotning mifologiya bilan chambarchas bog'liqligi, miflar turli estetik tizimlarda uchrashi, mifologik sujetlarga murojaat qilish zamonaviy voqelik va tarixni o'zgacha nigohda ko'rish imkonini berishi va shu sababli adabiyot ko'proq kosmogonik va esxatologik miflardan foydalanishi aniqlangan;

mifologizmning psixologizm, ichki monolog, "ong oqimi" adabiyoti bilan qorishib ketishi, muallif tafakkuri mifopoetik tafakkur bilan qo'shilish, mohiyatan yangi mifni vujudga keltirishi asoslangan;

mifologiyadan, arxetiplar va mifologemalardan, mifema va mifonimlar, mifologik motivlar va sujetlardan, mifik qahramonlardan yaxshi xabardorlik zamonaviy adabiy jarayonda neomifologizm va modernistik, postmodern, fusunkor realizm uslublarida yaratilgan badiiy asarlarni anglashga imkon berishi dalillangan;

Nazar Eshonqulning qissa va romanlari mazmun-mohiyatini shaxsiydan umumbashariya ko'tara olish mahorati, arxetipik va mifologik elementlardan

foydalanishda individual-mualliflik mahorati, ularning badiiy tizimdagи o'mni va asarning umumiy g'oyasini ochilishidagi rolining muhimligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning olingen natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tahlillarning uslubiy jihatdan to'g'riliqi, tahlil etilgan jahon ilmiy-adabiy asarlari sonining kengligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, chiqarilgan xulosa hamda olingen natijalarning amaliyatga tatbiq etish imkoniyati mavjudligi va uning samarali ekanligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy adabiyot o'z tarixiy taraqqiyoti davomida mifga alohida qiziqish va e'tibor bilan munosabatda, mifologiya bilan uzviy aloqa, o'zaro ta'sirda bo'lib kelayotgani mavzularini, mifopoetika, mifologik tanqid va mifshunoslik maktablari tarixini o'rganilganligi bilan, Nazar Eshonqul nasrida kuzatilgan mifologik arxetiplar, mifologemalar va mifemalardan foydalanish, mifotsentrik asar yaratish mahoratining ko'rsatib berilganligi bilan, muallif neomifologiyasi xususiyatlari yozuvchining olam va odam tarixi, taqdiri, qismatiga munosabatini, kelajagiga umidini yanada yorqinroq, ta'sirliroq, teranroq anglashga ko'maklashashi dalillanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati badiiy asar matnidagi mifologizmlar va folklorizmlarni, neomifologik adabiyotni, mifopoetikani o'rganuvchilar, shuningdek, adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon va adabiy tanqid, asar tahliliga mifopoetik yondashuv uslublari yuzasidan o'quv-uslubiy qo'llanma, monografiya, darslik yozishda, ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nazar Eshonqul nasri mifopoetikasi mavzusi bo'yicha olingen ilmiy xulosa va takliflar asosida:

muallifning hikoyalarida mifopoetikaning asosiy komponentlari hisoblangan arxetip, sujet, motiv, mifologik obraz, mifema, mifologema, mifopoetik xronotop kabilarning mifotsentrik badiiy asar kompozitsiyasini tashkil qilishi hamda intermatnlilik, mifologik kodlar va allyuzalar singari modernistik va qayta yaratish san'ati, voqelikni miflashtirish, lingvomadaniy arxetiplarni badiiy matnga kiritish kabi neomifologik xususiyatlari asosida O'zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamlı "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 16-noyabrdagi 16/1 son ma'lumotnomasi). Natijada, Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari", "Qora kitob" qissalari va "Taqiq mevasi" romani misolida yozuvchining individual mifologiyasi, mifosentrik asar yaratish mahorati asoslanishiga erishilgan;

Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" asaridagi arxetipik sujetga kiruvchi ilkgunoh va abadiy tazarru motivlarini, inson makro va mikrokosmidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlarni tasvirlashda jahon xalqlari mifologiyasidagi Prometey, Iblis, Odam Ota, Momo Havo kabi obrazlaridan foydalanganligi hamda mifotsentrik asarda olamning mifopoetik manzarasini shakllantirishda makon va zamon, tabiat, oq va qora rang, ruhiyat, sakral-ilohiylik, ijtimoiy-madaniy, diniy-

mifologik tushunchalar hamda roviy va iblis, roviy va jamiyat, roviy va sharpa kabi struktura va mazmun hosil qiluvchi binar oppozisiyalar orqali chiqarilgan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Evropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliv ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 4-yanvardagi 5/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, til, mifologiya va madaniyatda aniqlangan simvolikani o‘rganish tadqiqotchi uchun inson ongiga yo‘l ochishiga doir ma’lumotlarning kengayishiga erishilgan;

Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari”, “Qora kitob” va “Taqiq mevasi” asarlariga mifopoetik yondashuv asosida yozuvchining kitob, olma mevasi, daraxt, yo‘l, uy, labirint kabi mifologemalardan foydalanib, milliy-individual mifologiya yarata olganligi kabi xulosalardan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Uchqun” singari teleko‘rsatuv ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi 2023-yil 21-dekabrdagi 01.07/409-son ma’lumotnomasi). Natijada, mifologiyadan, arxetipler va mifologemalardan, mifema va mifonimlar, mifologik motivlar va syujetlardan, mifik qahramonlardan yaxshi xabardorlik zamonaviy adabiy jarayonda neomifologizm va modernistik, postmodern, fusunkor realizm uslublarida yaratilgan, yaratilayotgan badiiy asarlarni yanada chuqur va teran idrok qilishga, anglashga imkon berishi kabi ilmiy xulosalar ko‘rsatuv mazmunini ochib berishga xizmat qilgan va yosh ijodkorlarning mifopoetika to‘g‘risidagi bilim-tajribalari oshirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (5 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda) e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 136 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Mifning genezisi: taraqqiyoti va transformatsiyasi” deb nomlanadi va u uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli “Mif tushunchasiga umumiy tavsiflar” deb nomlangan. Unda madaniyatning o‘ziga xos alohida hodisasi sifatida mifni o‘rganish – gumanitar ilm-fanning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishi ekanligiga e’tibor qaratiladi. Kishilik jamiyatining taraqqiyotida mifologiyaning ahamiyati va roli ulkandir. Mifologiya dunyoni anglashning asosiy usuli. Insoniyat o‘z mavjudligining ilk davrlaridanoq o‘zini o‘rab turgan olamni idrok etishga intildi: “Mif – insonning zohiri va botinida bo‘lgan olamni konseptlashtirish vositalaridir. Ma’lum ma’noda mif – ibtidoiy tafakkur mahsuli”<sup>6</sup>. Adabiyot, estetika va poetika tarixining eng muhim kategoriyasi, insonni tasvirlash uslubi sifatida mif hozirgi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu mifning inson turmushini badiiy aks ettirishning abadiy usuli, hayotning o‘ziga xos metaforasi ekanligi bilan bog‘liq.

Hozirgi gumanitar ilm-fanda “mif” terminining quyidagi asosiy ma’nolarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Mif olamni konseptuallashtirishning o‘ziga xos shakli. Masalan, “mifologik zamon va makon”, “mif mantig‘i”. Mifning konseptual jihatini quyidagi tavsiflarda ifodalashimiz mumkin: “Mif – olam taraqqiyotining ma’lum bosqichida uni idrok etishning barcha uchun umumiy va yagona shaklidir” (O.M.Freydenberg). “Mif – o‘ta zarur tafakkur va hayotiy kategoriya. U haqqoniy va yuqori darajada aniq voqelik” (A.F.Losev). “Mif... obrazlarda mujassam olam idroki” (Ya.E.Golosovker). “Miflar – umumxalq ommaviy xayolotining mahsuli bo‘lib, borliqni hissiy-konkret va haqiqiy deb qabul qilinuvchi jonli mavjudotlar ko‘rinishidagi umumlashma tarzda aks ettiradi” (S.S.Averinsev, M.N.Epshteyn). “Mif yoki mifologizm to‘g‘risida so‘z yuritarkanmiz, biz har doim ong hodisasi sifatidagi mifni nazarda tutamiz” (Yu.M.Lotman, B.A.Uspenskiy). “Mif – ongning tarix va madaniyat bilan o‘zaro bog‘liq o‘ziga xos shakli” (V.P.Rudnev). “Mif – borliq haqidagi tajribalarning muayyan usuli” (K.Xyubner)<sup>7</sup>.

2. Mif xudolar va qahramonlar, olamning yaralishi haqidagi qadimiylar xalq hikoyalaridir. Masalan, “Umay Ena haqidagi miflar”, “Gerakning o‘n ikki qahramonligi”, “Prometey jasorati”; “Qadimgi turkiylar mifologiyasi”, “Qadimgi Yunon mifologiyasi”. Mifning hikoyatlarga oid aspektlarini quyidagi ta’riflarda ko‘ramiz: “Mif xalq ularning haqiqiyligiga shubha qilmaydigan ilohlar va ilohiy mavjudotlar to‘g‘risidagi hikoya” (V.Ya.Propp). “Mif so‘zlarda bayon etilgan ajoyib shaxsiy tarix” (A.F.Losev). “Mif bu – o‘zi yuzaga kelib, mavjud bo‘ib turgan joylarda haqiqat deb qabul qilingan hikoyat” (M.I.Steblin-Kamenskiy). “Mif – u yoki bu an’analarda muqaddas hisoblangan voqealar va personajlar haqidagi hikoyalar” (S.Yu.Neklyudov). “Mif – juda qadimiylar rivoyatlar bo‘lib,

<sup>6</sup> Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. – М.: РГГУ, 2000. – С.25.

<sup>7</sup> Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М.: Лабирингт, 1997. – С. 17.; Лосев А.Ф. Диалектика мифа / Под ред. А.А. Тахо-Годи. – М.: Изд-во «Мысль», 2001. – С. 37.; Голосовкер Я.Э. Избранное. Логика мифа. – М.; СПб: Центр гуманитарных инициатив, 2010. – С. 106.; Аверинцев С.С., Эпштейн М.Н. Мифы // Литературный энциклопедический словарь / Под ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Сов. энциклопедия, 1987. – С. 224.; Лотман Ю.М., Успенский Б.А. Миф – имя – культура // Лотман Ю.М. Избранные статьи в трех томах. Т.1. Статьи по семиотике и топологии культуры. – Таллин: Александра, 1992. – С. 60.; Руднев В.П. Словарь культуры XX века. – М.: Аграф, 1997. – С. 169.; Хюбнер К. Истина мифа. – М.: Республика, 1996. – С. 41.

qadimgi odamlar uchun muhim, aksar hollarda ilohiy va ijtimoiy hodisalar haqidagi ongsiz-badiiy hikoyatlardir” (A.S.Kozlov). “Mif muayyan bir yaratuvchilik to‘g‘risidagi hikoya” (M.Eliade). “Mifning mohiyat mazmunini unda bayon etilgan voqeal tashkil etadi” (K.Levi-Stross)<sup>8</sup>.

Yu.M.Lotman, Z.G.Mints, Ye.M.Meletinskiylar qarashlariga ko‘ra, mif bilan adabiyotning o‘zaro aloqalarini ikki aspektda olib o‘ganish mumkin: evolutsion va tipologik. Evolutsion aspektida qaralganda, mif haqidagi tasavvurlarni tarixiy taraqqiyot jarayonida yozma adabiyot paydo bo‘lishidan oldingi ongli faoliyatning muayyan bosqichi sifatida namoyon qiladi: “Mifologik obrazlar, asosan, insonlarning tasavvurida shakllangan. Ular shuning uchun ham xayoliy uydurma sifatida qaraladi. Umuman, mifologik obrazlar kishiga yo‘qdan bor qilish tasavvurini beradi. Miflarning paydo bo‘lishida kishilarning xayoliy o‘ylari ustunlik qilgan. Ibtidoiy muhit, jamiyat, turmush tarzi bunday qarashlarning paydo bo‘lishi va shakllanishiga turtki bo‘lgan”<sup>9</sup>. Tipologik aspekt mif va adabiyot bir vaqtning o‘zida mavjud hamda o‘zaro uzviy aloqada bo‘lgan olamni idrok etish va tasvirlashning ikkita bir-biridan farqli usuli sifatidagi o‘zaro bog‘liqligini ko‘zda tutadi.

Bobning ikkinchi fasli “Mifopoetikaning asosiy aspektlari” deb ataladi. Mifopoetika poetikaning bir qismi sifatida o‘rganiladi va “poetika” termini ko‘p ma’noli bo‘lganidek, “mifopoetika” tushunchasi ham turlicha talqin qilinadi. Tadqiqotimizda keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, zamonaviy adabiyotshunoslikda “mifopoetika” terminining uch ma’nosini alohida ko‘rsatishimiz mumkin: 1) mifopoetika mifotsentrik asarning badiiy sistemasi (badiiy asardagi muallif tomonidan yangicha tushunilgan va qayta yaratilgan mifologik va arxetipik sujetlar, motivlar, obrazlar tizimlari, mifologik modellar); 2) mifopoetika muallifning mifosentrik asar yaratish (mif yaratish, miflashtirish) strategiyasi (o‘z universalligi, keng qamrovi bilan mifga teng asar yaratishga muallif niyati, shu maqsadda muallif foydalangan badiiy usullar); 3) mifopoetika mifotsentrik asarni o‘rganish metodi (mifopoetik yondashuv, matnning mifopoetik tahlili). Biz “mifopoetika” terminidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’nolardan birinchisida foydalanishni ma’qul topdik va unga quyidagi ta’rifni taklif qilamiz: mifopoetika – mifosentrik asarning badiiy tizimi, ya’ni asarda muallif niyatiga muvofiq tarzda o‘zgartirilgan struktura va mazmun hosil qiluvchi mifologik hamda arxetipik element (sujet, motiv, obraz va hokazo)lar tizimi. Mifopoetikaning asosiy komponentlari: arxetiplier, sujet, motiv, mifologik obraz, mifema, mifologema,

<sup>8</sup> Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки. Исторические корни волшебной сказки. –М.: Лабиринт, 1998. – С. 123.; Лосев А.Ф. Диалектика мифа / Под ред. А.А. Тахо-Годи. – М.: Изд-во «Мысль», 2001. – С. 212.; Стеблин-Каменский М.И. Миф. – Л.: Наука, 1976. – С. 4. 123.; Неклюдов С.Ю. Структура и функция мифа // Мифы и мифология в современной России / Под ред. К.Аймермахера и др. М.: АИРО-ХХ, 2003. С. 17; Козлов А.С. Миф // Современное зарубежное литературоведение. Энциклопедический справочник / Под ред. И.П. Ильина, Е.А. Цургановой. – М.: Интранда-ИНИОН, 1999. – С. 221.; Элиаде М. Аспекты мифа / Пер. с фр. Е. Большакова. – М.: Инвест-ППП, 1996. – С. 16.; Леви-Стросс К. Структурная антропология. – М.: Изд-во ЭКСМО-пресс, 2001. – С. 218.; Шарыпшина Т.А. Проблемы мифологизации в зарубежной литературе XIX-XX вв. – Н. Новгород: Изд-во ННГУ, 1995. – С. 15.; Токарев С.А., Мелетинский Е.М. Мифология // Мифы народов мира: Энциклопедия в 2 т. Т. 1 / Под ред. С. А. Токарева. – М.: Сов. энциклопедия, 1980. – С. 14.; Жизнь мифа в античности. Материалы научной конференции «Випперовские чтения – 1985». Вып. XVIII. В 2-х Т. / По ред. И.Е. Даниловой. – М.: Сов. художник, 1988. Т. 2. – С. 390.

<sup>9</sup> Тошева Н. Исажон Султон ҳикояларида фольклорнинг ўрни // Тил ва адабиёт таълими, 2019. № 5. – Б. 34.

mifopoetik xronotop, mif yaratuvchilik va hokazolar. Arxetipler ommaviy ongsiz tajribalarni, miflar ommaviy ongli tajribalarni, san'at esa ijodkorning shaxsiy tajribalarini o'zida mujassam etadi. Sujet yordamida alohida epizodlar bir butunga birlashadi, personajlar tabiatni va tiynati ochib beriladi, voqealar rivojining sur'ati ta'minlanadi. Motiv – sujetning elementar birligi. Mifema – o'zida mifologik obraz va mifologik sujetni mujassam etgan mifologik nom. Mifologema tashqi olamning mifdagi obrazi (suv, uy, tog'u toshlar, tabiat singari mifologemalar). Mifopoetik xronotop – olamning mifdagi zamon va makonda yaratilgan modeli. Arxaik mifologik tafakkur uchun zamon va makonni o'ziga xos ko'rinishda tushunish xosdir. Makon diskret, bir turli emas va binar oppozitsiyalar vositasida tartiblanadi: "markaz – sarhad", "yuqori – quyi", "o'ng – chap" va hokazo.

Biz adabiy asar to'g'risida fikr yuritarkanmiz, "mif yaratuvchilik" terminini quyidagi ma'noda qo'llaymiz: mif yaratuvchilik – muallifning mifotsentrik asar yaratish strategiyasi va ushbu strategiya badiiy asarni mifga o'xshatish maqsadida an'anaviy miflar modellariga hamda mifologik tafakkur qoidalariga asoslanadi.

Bobning "**Misopoetikaning asoslari: arxetip va mifologema**" deb nomlangan uchinchi faslida badiiy asarning tahliliga mifopoetik yondashuvda bosh element hisoblanadigan abadiy ilkobrazlar – arxetipler va tashqi olamning mifdagi timsollashishi bo'lган mifologemalarga keng tavsif beriladi. Har qanday mif - umumahamiyatli bilim, insoniyat bilim-tajribasining o'ziga xos manbaidir. Mifga murojaat qilish voqelikni tartiblashga, voqelikni miflarda aks etgan muayyan umumiyyatga muvofiqlashtirishga intilishni anglatadi.

"Arxetip" tushunchasini zamonaviy ilmga analitik psixologiya asoschisi K.G.Yung kiritadi. Arxetip yunonchadan arche – ibrido, typos – obraz. "Arxetip" termini ostida zamonaviy filologiyada o'rin egallagan keng tushunchadan kelib chiqib, badiiy ijodning "ko'chib yuruvchi, yaratuvchi" ma'lum modellari, barqaror takrorlanuvchi abadiy shakllari ko'zda tutiladi: "...arxetipler har qanday badiiy strukturalar asosida yotuvchi, eng umumiyy, fundamental va umuminsoniy mifologik motivlar, ilk sxemalar va tasavvurlar"<sup>10</sup>dir. Adabiy arxetipler – bu nafaqat mif va urf-odat bilan bog'liq "ilkobrazlar", balki adabiyotning "abadiy obrazlari" ham sanaladi. Yu.V.Domanskiy bu borada shunday fikrlarni keltiradi: "Arxetip deganda biz (albatta, K.G.Yung va Ye.M.Meletinskiylar arxetipga bergen ta'rifga tayangan holda) bashariyat taraqqiyotining eng dastlabki davrlarida inson ong-shuurida, ongostida hosil bo'lган (shunga ko'ra milliy mansubligidan qat'iy nazar barcha uchun umumiyy bo'lган), miflarda to'g'ri ifodalangan va hozirgi kunlargacha kishilar ongostida saqlanib kelayotgan birlamchi sujet sxemalari, obrazlar yoki motivlarni (jumladan predmetga ham oid) tushunamiz"<sup>11</sup>.

Eng muhim mifologik arxetipler yoki arxetipik mifologemalar sifatida Yung avvalo "ona", "bola", "sharp" (soya)", "animus", "donishmand chol" ("donishmand kampir") arxetiplarini alohida ajratib ko'rsatadi. "Ona" abadiy va boqiy ongsiz stixiyani ifodalaydi. "Bola" ommaviy ongsizlik muhitidan shaxsiy ong-shuurning uyg'onishi ramzi. "Sharp" shaxsning ong-shuur chegarasidan tashqarida qolgan ongsiz bo'lagi. Erkaklar uchun "anima" va ayollar uchun

<sup>10</sup> Мифы народов мира. Т.1. 2008. – С. 110-111.

<sup>11</sup> Доманский Ю.В. Смыслообразующая роль архетипических значений в литературном тексте: пособие по спецкурсу. – Тверь: Тверской гос ун-т, 1999. – С. 93.

“animus” o‘zga jins obrazida ifodalangan shaxsning ongsiz ibtidosi, “donishmand chol” – oliv ma’naviy sintez, keksalikda ruhning ongli va ongsiz sohalarini uyg‘unlashtiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobni “Nazar Eshonqulning adabiy-estetik qarashlari va mifologiya” deb nomlangan bo‘lib, birinchi faslida “Mifologik va badiiy tafakkur mushtarakligi” o‘rganildi.

“Badiiy tafakkur azaldan abadga qadar olam va odam mushtarakligini muhokama qiladi, insonni ilohiy uyg‘unlik rishtalari bilan bog‘lab turadi”<sup>12</sup>. Mifologik merosga murojaat qilib, yangi mifologiyani yaratayotgan yozuvchi Nazar Eshonqul ijodi zamonaviy o‘zbek nasrida o‘ziga xos salmoqli o‘rin egallaydi. Yozuvchi uslubi, vogelikka yondashuvi, tasvir va talqindagi o‘zgachaligi bilan zamondoshlaridan farqlanib turadi. Muallif asarlarida o‘zligini anglash yo‘lida o‘z-o‘zi bilan kurashayotgan Shaxs qiyofasi, uning anglamlari, hissiy kechinmalari butunlay yangi rakurslarda ko‘rsatilishi e’tiborga loyiqdир. N.Eshonqulning fikricha, “...xalqimizning dastlabki kosmogonik qarashlari, boshqacha aytganda, mifologik tasavvurlari urf-odatlardan tortib amaliy san’at turigacha, cho‘pchak va qo‘shiqlari, eng muhimi, qadimgi mifologik sujetlar asosida paydo bo‘lgan dostonlarimizda o‘zining qiyofasi va ma’nosini hanuzgacha saqlab kelyapti”<sup>13</sup>. Mifologik sujetlarga murojaat qilish zamonaviy vogelik va tarixni o‘zgacha nigohda ko‘rish imkonini beradi. Shu sababli adabiyot ko‘proq kosmogonik va esxatologik miflardan foydalanadi. Adabiy mif esa folklor qonuniyatlarini hozirgi adabiy shakllarga yaqinlashtirishga, an’anaviy mifologik konfliktni zamonaviy vogelikka ko‘chirishga, arxetipik obrazlar va motivlarga asoslangan holda universal olam modelini yaratishga va shu bilan muhim muammolarni abadiy maqomiga ko‘tarishga intilib keladi. Fikrimizning dalili sifatida yozuvchining “Mendan “men”gacha”, “Ijod falsafasi (“Men”dan mengacha” – 2)” kitoblari, adabiy suhabatlar, adabiy tanqidiy maqolalari, bir qator hikoyalari mifopoetika nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Ikkinci bobning ikkinchi fasli “Muallifning mifotsentrik asar yaratish mahorati” deb atalgan. Biz N.Eshonqulning mifotsentrik asar yaratish mahoratini “Tun panjaralari” qissasi misolida isbotlashga harakat qildik. Asar matnida foydalanilgan *uy, eshik, deraza, tuynuk, yerto ‘la* kabi mifosimvollar tahlil qilindi. Yozuvchining mifologiyadan, arxaik tasavvurlardan xabardorligi uning arxetipik mifosimvollardan unumli foydalanishida yaqqol seziladi: “Bir kuni unga “Tun ertaklari” degan turkum hikoyalarimning birini o‘qib bergandim. Hikoyada deyarli hech narsa yo‘q edi. U qandaydir tashlandiq uy va bir parcha osmon ko‘rinib turgan deraza haqida edi. Uy eski, xaroba, ichini o‘t-o‘lan bosgan, zax va badbo‘y hid tutib ketgandi. Men ko‘priordan o‘tishdan cho‘chib bir joydadepsinib turgan otday tashlandiq uy va kichkina derazani qayta-qayta varaqlar sahifasiga tortib chiqaraver gandim. Deraza doim ochiq turardi, undan ba’zan daryo bo‘yida joylashgan bog‘ va qushlar ko‘rinib qolardi”<sup>14</sup>. Mana shu birgina matn parchasida

<sup>12</sup> Эшонкул Н. Ижод фалсафаси (“Мен”дан менгача – 2) [Матн]/Н. Эшонкул. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.243.

<sup>13</sup> Ўта маинба. – Б. 90.

<sup>14</sup> Эшонкул Н. Сайланма II [Матн]: роман ва киссалар / Назар Эшонкул. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 497.

biz yettiha mifosimvolni ko'rib turibmiz: uy, deraza, osmon, ko'priq, daryo, bog' va qushlar. Nazar Eshonqul nasrida yetakchi mifopoetik simvollardan biri uy obraz bo'lib, ushbu obraz yozuvchining deyarli hamma asarlarida o'ziga xos talqin qilinadi va har takrorlanganida chuqur ramziy ma'no kasb etadi.

Mifdag'i yaratuvchilik sun'iy rag'batlantirilib, mafkuraviy yoki estetik vazifaga aylantirildi. Hozirgi zamon jahon nasrida mif va mifologizmlardan foydalanish an'anasida quyidagi tamoyillar: 1) yozuvchining o'ziga xos mifologemalar tizimini yaratishi; 2) qahramon ruhiyatining badiiy tahlili murakkab mifosinkretik tafakkur tarzi asosiga qurilishi; 3) xalq og'zaki badiiy ijodida saqlanib qolgan mifologik tasavvurlar asosida xalqning qadimgi mifik sujetlar tizimini tiklashga intilishi; 4) muayyan mifologik obrazlar va motivlarni badiiy asar sujet-kompozitsion qurilmasiga olib kirish orqali realistik tasvir ko'lamenti kengaytirishi yetakchilik qiladi. Mifotsentrik asar yaralishi jarayonida muallif tafakkuri va mifopoetik tafakkur o'ziga xos sintezga kirishib, dastlabkisidan farqlanuvchi mifologik hodisani shakllantiradi.

**"Neomifologik adabiyot. Yangi mif"** deb atalgan uchinchi faslda badiiy adabiyotning zamona viy dunyoda yana mifga murojaat qilishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Yangi miflar qadim qavmlar ongi qa'ridan emas, balki personajning yolg'izlanishi va o'z botiniga murojaat etishi hollarida vujudga keladi: "inson, baribir, yolg'iz, chunki u yolg'izlikka mahkum etilgan: u o'zining haqiqiy manzilidan quvg'in qilingan, jismini yasagan ustadan ayro tushgan. Bu ilohiy yolg'izlik, tabiatning, olamning, ranglar va bo'yoqlarning, go'zallik va do'stlikning, mehr va shafqatning aslini qo'msash yolg'izligi edi"<sup>15</sup>. Mifologizmning psixologizm, ichki monolog, "ong oqimi" adabiyoti bilan qorishib ketishi shundan. "XX asrda adabiyot yana mifologik ramzlarga qaytdi, adabiyot mifologik tus oldi, mifopoetikani talqin qilishning yangi bosqichi boshlandi"<sup>16</sup>. Yozuvchi tomonidan asarda foydalanilgan mif yoki mifning har qanday elementi yangi qirralar va yangicha ma'nolar kasb etadi. N.Eshonqulning "Xayol tuzog'i" hikoyasini mifopoetik tahlili yuqorida keltirilgan mulohazalarni to'la isbotlaydi. "Xayol tuzog'i" hikoyasining sujeti roviy-qahramonning Voqif ismli tanishi sirli ravishda daraksiz yo'qolgan va uni izlab topishga urinishlari jarayonida Voqifning kundaligini o'qib chiqishidan iborat. Hikoyada muallif tafakkuri mifopoetik tafakkur bilan qo'shilib, mohiyatan yangi mifni vujudga keltiradi: "Miflar – insonni kashf qilishning, inson ruhiga, ummoniga kirishning bir vositasi. Har qanday mifda xalq o'tmishi, dunyoqarashi, shaxs "men"i yashiringan. "Men"i yo'q odam, garchi ulkan ijodkor bo'lsa ham, shaxsga aylanolmaydi"<sup>17</sup>. Nazar Eshonqul mazkur hikoyasida qo'rquv motivining badiiy talqinida "uy (sirli bino)" mifologemasidan, Noma'lumlik, Yo'qlik, O'lim kabi tushunchalarning jonlantirilgan mifologik obrazlaridan mahorat bilan foydalanib, bugungi kun mifini yaratadi. XX – XXI asrlarda mifologik sujetlar va obrazlarni qayta anglash, qayta ifodalash shunday katta adabiy ko'lam kasb etdiki, bu davrni "mifning qayta tug'ilishi" yoki neomifologizm davri desak to'g'ri bo'ladi.

<sup>15</sup> Эшонкул Н. Ижод фалсафаси ("Мен"дан менгача – 2) [Матн]/Н. Эшонкул. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 253.

<sup>16</sup> Ўша манба. – Б. 45.

<sup>17</sup> Эшонкул Н. Мендан менгача. – Тошкент. Akademnashr, 2014. – Б. 113.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Nazar Eshonqul nasrining mifopoetik tahlili” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli “N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanidagi mifologizmlar tahlili”da badiiy asarda mifologizm namoyon bo‘lishi va muallifning undan foydalanish mahorati o‘chib berildi. Mif sujet, obraz, motiv, allyuziya, tagmatn sathlarida o‘zini namoyon qiladi. Mif asarda mafkuraviy, kompozitsion, poetik, strukturlovchi vazifalarini bajarishi mumkin. Badiiy mifologizm strukturasini ikki turga ajratamiz:

1. Eksplitsit struktura. Bunda obrazlar mazmun-mohiyati asar rivoji davomida ochilib boradi.

2. Implitsit struktura. Bu holatda esa asarni o‘zi emas, balki diniy-mifologik an’analar yordamida tushunish mumkin bo‘lgan belgi-xususiyatlar anglashiladi. Matnni to‘g‘ri tushunish va talqin qilish diniy-mifologik bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Badiiy asar strukturasida mana shu ikki sath “mifopoetik tagmatn”ni hosil qiladi.

